

**BOLALARNI INKLYUZIV TA‘LIM SHAROITIDA TARBIYALASH**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.084>

Abdraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna
Qo‘qon davlat universiteti Andijon filiali
Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni inklyuziv ta‘lim sharoitida tarbiyalashning samarali pedagogik yondashuvlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda bolalarning individual xususiyatlari, ijtimoiy va hissiy rivojlanish darajasi hisobga olinib, ularni inklyuziv muhitda qo‘llab-quvvatlash strategiyalari tahlil qilindi. Shningdek, kuzatuv, intervyu, pedagogik tajriba, guruh va individual mashg‘ulotlarni kuzatish hamda amaliy faoliyat natijalarini tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, interfaol o‘yinlar, individual yondashuv, kooperativ faoliyat va ota-ona bilan samarali hamkorlik bolalarda ijtimoiy moslashuv, hissiy intellekt, hamkorlik ko‘nikmalari va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotning natijalari inklyuziv ta‘lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash orqali bolalarning ijtimoiy va akademik kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta‘lim, maktabgacha yosh, bolalarni tarbiyalash, interfaol o‘yinlar, ijtimoiy va hissiy rivojlanish

Abstract: This article is devoted to the study of effective pedagogical approaches to raising preschool children in inclusive education. The study analyzed strategies for supporting them in an inclusive environment, taking into account the individual characteristics of children, their level of social and emotional development. In addition, observation, interviewing, pedagogical experience, monitoring of group and individual classes, and analysis of the results of practical activities were used. The results showed that interactive games, an individual approach, cooperative activities, and effective cooperation with parents significantly increase children's social adaptation, emotional intelligence, cooperation skills, and interest in learning. The results of the study confirm the possibility of developing children's social and academic competencies through the use of innovative pedagogical approaches in the process of inclusive education.

Keywords: inclusive education, preschool age, raising children, interactive games, social and emotional development

Аннотация: Данная статья посвящена изучению эффективных педагогических подходов к воспитанию детей дошкольного возраста в условиях инклюзивного образования. В исследовании анализировались стратегии поддержки детей в инклюзивной среде с учетом индивидуальных особенностей детей, уровня их социально-эмоционального развития. Кроме того, использовались наблюдение, интервьюирование, педагогический опыт, мониторинг групповых и индивидуальных занятий, а также анализ результатов практических занятий. Результаты показали, что интерактивные игры, индивидуальный подход, кооперативная деятельность и эффективное сотрудничество с родителями значительно повышают социальную адаптацию детей, эмоциональный интеллект, навыки сотрудничества и интерес к обучению. Результаты исследования подтверждают возможность развития социальных и академических компетенций детей посредством использования инновационных педагогических подходов в процессе инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольный возраст, воспитание детей, интерактивные игры, социально-эмоциональное развитие

KIRISH. Jahon ta’limi rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish, shuningdek, variativ o‘quv dasturlaridan foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Global ta’lim siyosati shuni ko‘rsatadiki, har bir bolaning rivojlanish sur’ati, kognitiv imkoniyatlari, ijtimoiy-emotsional tajribasi va o‘rganish uslubi o‘ziga xos bo‘lib, ularni yagona standart asosida ta’lim jarayoniga jalb etish kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli BMTning ta’lim sohasidagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri ishtirokchi davlatlarda inklyuziv ta’lim tamoyillarini keng joriy etish orqali barcha bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlarini hisobga oluvchi sifatli va adolatli ta’limni ta’minlashdan iboratdir.

YUNESKO ning inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan tashabbuslari ham inkluziv ta’lim konsepsiyasining global miqyosda rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, tashkilot tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-me’yoriy hujjatlar, xalqaro standartlar va intellektual hamkorlik dasturlari alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz, qulay, diskriminatsiyasiz va teng imkoniyatlarga ega o‘quv muhitini yaratishga qaratilgandir. Bu jarayon nafaqat maxsus pedagogik qo‘llab-quvvatlashni, balki barcha ta’lim ishtirokchilarining psixologik farovonligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya hamda ta’limning ochiqligi va gender tengligi prinsiplarini belgilovchi xalqaro hujjatlarda o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, ta’limdan foydalanishda tenglikni ta’minlash, har bir bolaning ehtiyojiga moslashtirilgan o‘quv

jarayonini tashkil etish va jamiyatda diskriminatsiya holatlarining oldini olish davlatlar oldidagi muhim vazifalardan sanaladi. Shuningdek, gender tengligini ta‘minlovchi mexanizmlarni ta‘lim amaliyotiga keng joriy etish ham ijtimoiy adolatning ajralmas qismidir.

Mazkur talablar O‘zbekistonda olib borilayotgan ta‘lim islohotlarida ham o‘z aksini topmoqda. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni shakllantirish, ta‘lim oluvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini inobatga olgan holda individuallashtirilgan dasturlarni qo‘llash, tarbiyachi va ota-ona hamkorligini kuchaytirish masalalari bugungi kunda dolzarb sanaladi. Ayniqsa 3–7 yosh — bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi eng faol kechadigan davr hisoblanadi va shu bosqichda inklyuziv yondashuvni samarali qo‘llash ularning keyingi ta‘lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarni inklyuziv ta‘lim sharoitida tarbiyalash bo‘yicha samarali pedagogik strategiyalarni aniqlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va hissiy rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-uslubiy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot aynan shunday ehtiyojdan kelib chiqib, inklyuziv ta‘lim muhiti sharoitida bolalarni tarbiyalashning innovatsion, ilmiy asoslangan va natijador yondashuvlarini tahlil qilishni maqsad qilgan.

METODOLOGIYA. Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarni inklyuziv ta‘lim sharoitida tarbiyalashning samarali yondashuvlarini aniqlashga qaratilgan. UNESCOning inklyuziv ta‘lim standartlari hamda “Alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘limni tashkil etish maqsadida ta‘lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini moslashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” [2] kabi muhim vazifalari asos bo‘ldi.

Bolalik davri inson rivojlanishida psixologik va pedagogik jihatdan eng sezgir bosqichlardan biri bo‘lib, bolaning organizmi va miya tuzilishining ichki imkoniyatlari cheksizligi inobatga olinishi lozim. Shu davrda amalga oshiriladigan korreksion-pedagogik, psixologik va tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirishga va ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Natijada rivojlanishdagi cheklavlarga ega bolalar mustaqil hayot kechirishga, atrof-muhitga moslashishga va o‘z imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga tayyor bo‘ladi.

Bolalarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va adaptatsiyasi nafaqat ularning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, balki zamonaviy texnologiya va innovatsiyalar yordamida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan murakkab jarayon bo‘lib, professional yondashuvni talab qiladi. Shu maqsadda respublikamizda nogironligi bo‘lgan bolalar bo‘yicha idoralararo tadqiqotlar olib borilgan va ularning ijtimoiy moslashuv holati tahlil qilingan. 2007 yilda “O‘zbekiston inklyuziv ta‘lim” loyihasi amalga oshirildi, unda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda bir qator shahar va viloyatlardagi markazlar (masalan, “Umr”, “Hayot”, “Istiqbolli avlod”, “Umid”, “Imkon”, “Ziyo”)

hamkorlik qildi. Loyihaning maqsadi – imkoniyati cheklangan bolalarni aralash guruhlarda inklyuziv texnologiyalar asosida ta’lim-tarbiyaga jalb etish, ularning ijtimoiy moslashuvi va akademik rivojlanishini ta’minlash edi.

NATIJAR. Hozirgi kunda O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda inklyuziv ta’lim imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu jarayon bolalarning ruhiy va jismoniy salomatligini tiklash, ularni jamiyatga integratsiya qilish va teng sharoitlarda ta’lim olishlarini ta’minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta’lim orqali bolalar o‘z atrofidagi tengdoshlar bilan muloqotda bo‘lish, kundalik-maishiy ko‘nikmalarni o‘rganish, darslarni o‘z vaqtida bajarish va mas’uliyat bilan yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, amaliyotda inklyuziv ta’lim jarayonida ayrim murakkabliklar kuzatiladi. Masalan, sog‘lom bolalar bilan imkoniyati cheklangan bolalar orasidagi farqlar, nogiron bolalarning tengdoshlariga qo‘shilmasligi yoki o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmasligi, shuningdek, oilada haddan tashqari erkalik tufayli qaysarlik yoki injiqlik ko‘rsatishi mumkin. Bu holatlar pedagog, sinf rahbari va tarbiyachilardan yuqori darajada professional mahorat va mas’uliyatni talab qiladi.

Shuning uchun inklyuziv ta’limni tashkil etishda pedagogik-psixologik yondashuv, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, interfaol o‘yinlar, kooperativ mashg‘ulotlar va ota-ona bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizimli yondashuv bolalarning ijtimoiy, hissiy va akademik rivojlanishini bir vaqtning o‘zida rag‘batlantiradi va ularni mustaqil, jamiyatga moslashgan shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim - barcha o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir.

Inklyuziv ta’limni oiladan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan jamiyatdagi umumiy munosabat sezilarli darajada o‘zgarayotgani kuzatilmoqda. Bu o‘zgarishlar ularning hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishi va ijtimoiy integratsiyaga erishishiga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta’lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi, natijada stereotiplar shakllanishining oldi olinadi va ular jamiyatdan ajratib qo‘yilmaydi. Shu bilan birga, bolalar olgan ko‘nikmalarini mustahkamlash va umumlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Jamiyat uchun ishlab chiqilgan va reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta’lim strategiyasi o‘quv jarayonining uzluksizligini va tizimlilikini ta’minlaydi. Oila – maktabgacha ta’lim tashkiloti ish bilan ta’minlash tizimi kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan farzandlarini umumta’lim muassasalari va oliy ta’lim muassasalariga xavfsirasadan va bimalol olib kelishlariga qulay zamin yaratadi.

Inklyuzivlik-inglizcha so‘z bo‘lib, inklusif- qo‘shish, birlashtirish ma‘nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilarni umumta‘lim maktablarida sog‘lom bolalar bilan qo‘shib birgalikda o‘qitish jarayonini ifodalaydi. [3]

Inklyuziv ta‘lim – o‘quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta‘lim jarayonidir. [4]

Shu nuqtai nazardan, “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” maxsus ehtiyojli bolalarning ta‘lim olish huquqlarini himoya qilib, ularning jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etishini ta‘minlashni nazarda tutadi. Konvensiyada ta‘kidlanganidek, nogiron bolaning maxsus ehtiyojlari aniqlanib, uning ijtimoiy hayotga qo‘shilishi va shaxs sifatida rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar ta‘minlanishi lozim.

Shunday qilib, O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni tizimli joriy etish – oiladan boshlab oliy ta‘limgacha uzluksiz ta‘lim tizimini shakllantirish – Konvensiya tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishning huquqiy va pedagogik mexanizmi sifatida qaraladi. Bu yondashuv nafaqat bolalarning akademik va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantiradi, balki ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, teng imkoniyatlardan foydalanishi va ijtimoiy stereotiplarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, inklyuziv ta‘lim strategiyasi Konvensiyada belgilangan “barcha huquqlar – barcha bolalarga” tamoyilini ta‘minlashning samarali vositasi hisoblanadi.

Inklyuziv ta‘lim strategiyasini joriy etishda individual yondashuv nafaqat maxsus metodlar bilan cheklanmaydi; ba‘zan bola bilan bir necha daqiqa samimiy suhbat qilishning o‘zi uning darsdagi faolligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ota-onalar ishtiroki qanchalik kuchli bo‘lsa, bolaning jamiyat va ta‘lim muhitiga moslashuvi shunchalik tez kechadi, ba‘zi hollarda ota-onaga berilgan psixopedagogik maslahat bolaning o‘zidagi o‘zgarishdan ham samaraliroq bo‘ladi. Bu tamoyil, “jamoat – mashq maydoni” g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, birgalikda faoliyatda, bir maqsadni ko‘zlab tashkil etilgan jamoa harakatlarida shaxsning hilma-xil fazilatlarini mashq qilinishi va shakllanadi.

Shunday pedagogik yondashuv, bolalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni hurmat bilan qabul qilish va talabchanlikni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu uslub ijobiy xulq-atvor va mas‘uliyat tuyg‘usini rivojlantiradi, shaxsning o‘z qadr-qimmatini va huquqlarini anglashiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, inklyuziv ta‘limni oiladan oliy ta‘limgacha uzluksiz joriy etish, “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”da belgilangan barcha bolalarning teng huquqlarini ta‘minlashga, ularning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga va ijtimoiy stereotiplarning oldini olishga xizmat qiladi.

Inklyuziv guruhdagi birgina kichik muvaffaqiyat — bola birinchi marta guruh o‘yinida qatnashgani, do‘stiga yordam bergani yoki tarbiyachi bilan ko‘z urishtirib jilmaygani — tajribaning eng katta yutug‘i bo‘lishi mumkin.

Shu sababli inklyuziv ta’lim metodologiyasi nafaqat ilmiy asoslar, balki insoniy yondashuv, sabr-toqat va doimiy kuzatuvdan iborat jarayondir.

Bolalarni inklyuziv ta’lim sharoitida tarbiyalashning asosiy, etakchi usullaridan biri namuna asosida tarbiyalash hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni inklyuziv ta’lim sharoitida tarbiyalashda individual yondashuv, interfaol o‘yinlar va ota-ona bilan samarali hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlar ularning guruhdagi faol ishtiroki, tengdoshlari bilan hamkorligi va tarbiyachilar tomonidan namuna sifatida ko‘rsatilayotgan ijobiy xatti-harakatlarni taqlid qilish orqali amalga oshadi.

Kuzatuv va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv guruhda kichik muvaffaqiyatlar — masalan, bola birinchi marta guruh o‘yinida qatnashishi, do‘stiga yordam berishi yoki tarbiyachi bilan ko‘z urishtirib jilmayishi — uning ijtimoiy moslashuvi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan muntazam hamkorlik bolalarning ta’lim muhitiga tez moslashuvi va hissiy barqarorligiga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’limning samarali tashkil etilishi bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, guruh ichida hamkorlik qilish, shuningdek, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish imkonini beradi. Shu asosda, tarbiyachilar va o‘qituvchilar bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol o‘yinlar va guruh mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etishi, ota-onalarni esa ta’lim jarayoniga faol jalb qilishi lozim.

Natijalar ilmiy jihatdan inklyuziv ta’lim sharoitida bolalarni tarbiyalashda individual yondashuv, ijobiy taqlid va ota-ona bilan hamkorlik asosiy samaradorlik omillari ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa bolalarning ijtimoiy, hissiy va akademik kompetensiyalarini rivojlantirishda inklyuziv ta’limning muhim ahamiyatini ko‘rsatadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limni oiladan boshlab oliy ta’limgacha uzluksiz joriy etish, “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”da belgilangan barcha bolalarning teng huquqlarini ta’minlashga, ularning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga va ijtimoiy stereotiplarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, inklyuziv ta’lim strategiyasi bolalarning akademik va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantiruvchi, barqaror va ilmiy asoslangan pedagogik mexanizm sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO. (2019). Ensuring inclusion and equity in education: Guidance for policymakers. Paris: UNESCO Publishing.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.

3. Екатерина Михальч. Инклюзивное образование. 2021.

4. Педагогик атамалар луғати. – Т.: “Фан”, 2008. –Б.47.

5. Amirsaidova SH.M. “Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakkiri g‘oyalarning o‘rni va roli” . Ped. fan. nom... diss. – T., 2006.